

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Jo‘rayeva Lola Abdugabbarovna

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti o‘qituvchisi

Xodjamurodova Sevinch Nuriddinovna

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Anotatsiya: mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchalari, ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, O‘zbekistonda bu sohani rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu yo‘nalishda yoshlarning tutgan o‘rni va istiqbolli yo‘nalishlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy islohot, innovatsiya, bandlik, davlat qo‘llab-quvvatlovi, yoshlar tadbirkorligi.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ular jamiyatda iqtisodiy faollikni kuchaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlarini oshirish va innovatsion g‘oyalarni hayotga tatbiq etishda asosiy omil hisoblanadi. O‘zbekistonda bu sohalarning rivojiga alohida e‘tibor qaratilib, har tomonlama huquqiy, iqtisodiy va institutsional sharoitlar yaratilmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida tadbirkorlik muhitini yaxshilash, soliq siyosatini liberallashtirish, va kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalari ustuvor vazifa etib belgilangani, bu yo‘nalishga e‘tiborni yanada kuchaytirdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasi.

Kichik biznes deganda o‘z faoliyatini nisbatan kichik hajmdagi moliyaviy va moddiy resurslar bilan yurituvchi, kam sonli ishchi kuchiga ega bo‘lgan subyektlar tushuniladi. Xususiy tadbirkorlik esa jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan mustaqil iqtisodiy faoliyatdir. Ularning asosiy xususiyati bozor talabiga moslashuvchanlik, tez harakatlanish qobiliyati va cheklangan byudjet bilan innovatsion faoliyat yurita olishdir. Bu ikki soha o‘zaro bog‘liq bo‘lib, iqtisodiyotni jonlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati:

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik quyidagi afzalliklarga ega:
- Bozor talabiga tez moslasha oladi;
- Yangi ish o‘rinlari yaratadi;
- Hududiy iqtisodiyotni jonlantiradi;
- Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqaradi;

Davlat byudjetiga soliq tushumlarini oshiradi. Jahon amaliyotida kichik biznes YAIMning 50-60 foizini tashkil etsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 2023 yil holatiga ko‘ra 40 foizdan oshgan. Bu esa mazkur sohaning iqtisodiy barqarorlikda tutgan o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi. Shu bilan birga, xususiy tadbirkorlik aholining o‘zini o‘zi band qilish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ayollar va yoshlar orasida tadbirkorlik faoliyatining kuchayishi jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta‘minlashga hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.

Qonunchilik asoslari: "Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida"gi qonun, Prezident qarorlari va Farmonlari asosida kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar belgilangan. Shu bilan birga, "Yoshlar biznesi" va "Ayollar daftari" kabi dasturlar orqali aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish davlat siyosatining ajralmas qismiga aylangan.

Moliyaviy yordam mexanizmlari: Imtiyozli kreditlar, grantlar, subsidiyalar ajratilishi orqali yangi tadbirkorlar qo‘llab-quvvatlanmoqda. "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" orqali yoshlar va ayollarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, savdo va ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kichik korxonalar uchun soliq yengilliklari ham taqdim etilmoqda. 2024 yildan boshlab yangi mexanizm - "Biznesga yo‘l xaritasi" joriy qilinib, har bir hudud bo‘yicha individual yondashuv qo‘llanilmoqda.

Raqamlashtirish: Soliq tizimi, ro‘yxatga olish jarayonlari, elektron raqamli imzo (ERI) joriy qilinishi tadbirkorlar ishini yengillashtirdi. Hozirda tadbirkorlar barcha hujjatlarni onlayn tizim orqali topshirishi, soliq hisobotlarini masofadan turib taqdim qilishi mumkin. Bu esa shaffoflik va ochiqlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yoshlar tadbirkorligi: Universitetlar va kasb-hunar maktablarida tadbirkorlik asoslari o'qitilmoqda, startap loyihalar uchun grantlar ajratilmoqda. "Startap milliy platformasi", "Techno Park" va "IT Park"lar yoshlarning innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutmoqda. Yoshlar tadbirkorligi iqtisodiy o'sishning yangi yo'nalishlarini belgilab beruvchi muhim omilga aylanmoqda.

Muammolar va ularni bartaraf etish:

- Kredit olishda garov ta'minotining yetishmasligi;
- Malakali kadrlar tanqisligi;
- Byurokratik to'siqlar;
- Tadbirkorlik madaniyatining sustligi.
- Ularni hal etish uchun quyidagilar muhim:
- Moliyaviy savodxonlikni oshirish;
- Tadbirkorlik ta'limini kuchaytirish;
- Texnopark va inkubatorlar tashkil etish;
- Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- Tadbirkorlikka oid qonunchilikni soddalashtirish;
- Internet va raqamli xizmatlarga hududiy tenglikni ta'minlash.

Xulosa. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Ular mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi, aholi farovonligini oshiradi va milliy iqtisodiyotni innovatsion yuksalishga olib chiqadi. O'zbekiston misolida ko'rish mumkinki, har bir tadbirkorlik subyekti jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmoqda. Yaratilayotgan huquqiy va iqtisodiy sharoitlardan unumli foydalanish, yoshlar va ayollarni faol jalb etish orqali bu sohada yirik natijalarga erishish mumkin. Shu sababli bu yo'nalishdagi har bir tashabbus davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda va bu holat barqaror taraqqiyotning asosi sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari (2017-2024 y.)
2. www.stat.uz – Davlat statistika qo‘mitasi sayti
3. www.business.gov.uz – Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash portali
4. "Tadbirkorlik asoslari" darsligi, T.: Iqtisodiyot, 2022
5. Jahon banki va UNDP hisobotlari, 2023